

**G'ARBIY TURK XOQONLIGI CHOG'I "XOQON" UNVONLI TANGALAR**

*Normamatova Hilola Abdushukur qizi*

*Tadqiqotchi Milliy arxeologiya markazi*

*+998937917417*

*Normamatovah95@gmail.com*

Qadimgi turk davlatchiligida “xoqon-qag‘an” keyinchalik kan-qoon-xon oliy unvon bilinib, uning etimologiyasi xunlardagi “xan xon” unvoniga borib taqaladi. Qag‘an – turkcha, x'γ'n sog‘diycha, xke-han – xitoy transkripsiyasi (kâ-gân,k'â-gân)da, χαγάνος – yunoncha, xak'an – armancha, xaqan-i – gruzincha, chacanus – lotincha, xāqān – arabcha, khaha:nā – xotan-saq, χαγανο –baktriyacha, kha-gan – tibetcha, kagan – slavyancha<sup>1</sup> kabi ko‘p tillarada qo‘llanishini ushbu unvonning o‘z davri uchun siyosiy nufuzga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Turkiy bitiktoshlardagi “yuqorida ko‘k osmon, pastda qo‘ng‘ir yer yaratilganda ikkisining o‘rtasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istami xoqon (taxtga) o‘rnashgan(lar)”<sup>2</sup> yoki “Tangriday tangri yaratmish turk Bilga xoqon nutqim”<sup>3</sup> kabi jumlar keltirishining o‘ziyoq olamning yaratilishida xoqonning yerga hukmdorlik vazifasi belgilab berilganligi yo bo‘lmasa xoqonning tangriga o‘xshatilishi ( osmon o‘g‘li) sifatida anglashiladi.

Ma‘lumki, ilk o‘rta asrlar, xususan VI-VIII yuzyilliklar yurtimiz davlatchilik tarixi jadal kechgan davr sifatida qadrlanadi. Ushbu davrda mintaqa G‘arbiy Turk xoqonligi (568-740) qo‘l ostida faoliyat olib bordi. Xoqonlik o‘lkadagi asrlar davomida shakllanib kelgan hokimiyat, boshqaruvdan sezilarli foydalanishi bilan birga turkiy davlatchilik an‘analarini joriy etishi, o‘lkada o‘ziga xos boshqaruv tizimining yaratilishiga olib keldi.

Davlatchilik tizimining bir bo‘lagi bo‘lgan tangalardagi til va yozuvlar, tasvir va ramziy belgilar orqali o‘sha davrdagi mavjud davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-mafkuraviy hayotini o‘rganish mumkin. Qadimgi turk tangalarida “xoqon”, “tegin”, “tudun”, “eltabar”, “tarxon”, “cho‘r” kabi turkiy unvonlar uchrab, ulardan ko‘pchiligi “xoqon” unvoni bilan zarb etilgan tangalarni tashkil etadi.

G‘arbiy Turk xoqonligi chog‘i “xoqon” unvonli tangalar o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, buni ikki xil sababga ko‘ra zarb ettirilgan tangalar misolida ko‘rib chiqamiz.

1. “Xoqon” unvoni bilan zarb ettirilgan tangalar

<sup>1</sup> Old Turkic titles and epithets in turco-sogdian coins of coins of Central Asia Gaybullababayarov, Andrey Kubatin C. 65-157 Проблемы древней и средневековой истории Чача. Выпуск 6 история. Археология. Нумизматика. Lambert academic publishing 2020

<sup>2</sup> Farbiy Turk xoqonligi davlat tuzumi F. Boboërov toshkent 2018 43-105-114

<sup>3</sup> Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982. B.126

“Xoqon” unvoni bilan G‘arbiy Turk xoqonligi Choch va u bilan aloqador bo‘lgan sulolalar, Farg‘ona, To‘xoriston (kontramark) kabi voha hukmdorliklari tanga zarb ettirgan. Chochdagi G‘arbiy Turk xoqonligi tangalarida “Turk xoqon” (1-rasm), “Tun jabg‘u-xoqon” (2-rasm), “Elbi Ishbara Sir jabg‘u-xoqon” (3-rasm) “Tun jabg‘u-xoqon” (4-rasm), “Xoqon” (5-rasm) kabi unvonlarni ko‘rish mumkin. Shuningdek, ushbu tangalarda turkiy davlatchilik elementlari ham ustuvorlik qilganiga guvoh bo‘lamiz. (yangi chiqqan oy, hukmdorning otda va hayvon tasvirli taxtda o‘tirishi, yaydoq ot, xoqon va xotunning qo‘shaloq portreti, alpik timsoli bo‘lgan tuya) bunga asos bo‘ladi.



Quyida mutaxassislar tomonidan Farg‘ona Ashina sulola vakillarining bir tarmog‘i tomonidan chiqarilgan tanga sifatida qaraladi<sup>4</sup> (6-rasm). Biroq tanganing yuzasidagi tasvir uzun soch, biroz qisq ko‘z, dumaloq yuz Chochda zarb ettirilgan G‘arbiy Turk xoqonlarining, qolaversa “Choch teginlari”ning (605-750) qiyofasi bilan yaqin o‘xshash. Shuningdek, tanganing teskari qismida jabg‘ulik (568-600) chog‘i zarb ettirilgan tang‘a <sup>Ꞇ</sup> shakli bilan yaqin ko‘rinishga ega. Xattoki, sug‘diy yozuvda twrk cpyw..... “Turk jabg‘u.....” kabi so‘zlarning o‘rin olishi G‘arbiy Turk xoqonligi tomonidan Chochda zarb ettirilgan tangalarning yangi bir turi sifatida qarash kerak degan fikrni kuchaytiradi [6-rasm].

To‘xoriston (Termizda)da zarb ettirilgan ustbosma (kontramark) tangalarda xoqon unvoni o‘rin olgan<sup>5</sup> [7-rasm]. G‘arbiy Turk xoqonligi ushbu o‘lkaning sharoitidan kelib chiqib, etnomadaniy aloqalar ta‘sirida Sosoniy hukmdori Peroz tasviriga taqlidan tushirilgan tanganing ustidan “xoqon” unvoni bilan tanga zarb ettirgan. Ustbosma ko‘rinishda ushbu unvonning uchrashi Xoqonlikning To‘xoriston ustidan bo‘lgan legitimligining ifodasi sifatida bilinadi. Shuningdek, G‘arbiy Turk

<sup>4</sup> Бобоёров Ф. Фарғона - Фарбий Турк хоқонлиги чоғида. – Тошкент: Фан, 2023. – 97-98 б.

<sup>5</sup> Boboyorov G'. Qadimgi turkcha unvonli To‘xoriston tangalari // O‘zbekiston: til va madaniyat / Uzbekistan: Language & Culture. – Toshkent, 2019. – Vol. 2. – B. 80.

xoqonligi tashqi savdo-sotiqda ushbu turdagi tangalardan keng foydalanilganligining ifodasi sifatida ham bilingan.



O‘z tanga zarbiga ega bo‘lmagan Sharqiy Turk xoqonligidan farqli o‘laroq G‘arbiy Turk xoqonligining tanga tizimiga ayniqsa, Amudaryo-Sirdaryo oralig‘i mulkliklaridagi asrlar davomida shakllanib kelgan tanga bostirish an‘anasidan ta‘siri katta. Shuningdek, G‘arbiy Turk xoqonligi tangalarining dastlabki turlarida yunon qiyofali hukmdorning yakka yoki qo‘shaloq (hukmdor+malika) portreti va yunon yozuv izlari uchrab, buni Vizantiya bilan bo‘lgan diplomatik aloqalar ta‘siri deb qaralsa, xoch (krest), zardushtiylik otashdon (olov mehrobi) kabi tasvirlar, buddaviylik (chordana qurib o‘tirish, Shiva tasviri (Kobuliston, Shimoliy Hindiston) hamda fil (Ustrushona) tasvirining o‘rin ola boshlashi diniy bag‘rikenglikning ifodasi hisoblanadi. Vaqt o‘tishi bilan tangalar ikonografiyasida ayniqsa, Amudaryo-Sirdaryo orasidagi hukmdorliklarda turkiy qiyofa (uzun sochli, biroz qisq ko‘zli, soqolsiz, dumaloq yuzli hukmdor tasvirlari), ramziy belgilarda tangrichilik elementlari (o‘q-yoy, qilich, qo‘shqilich, hayvon tasvirli taxt, yarim oy va yulduz (5 yoki sakkiz qirrali), alpik ramzi bo‘lgan tuya, iloha Umay), poleografiyasida esa turkiy unvon va atamalar (“xoqon”, “jabg‘u”, “tegin”, “tudun”; to‘n, alp, el, yenchu va b.), hukmdorning ismlari (Tardu, Tun, Ishbara ) keng qo‘llanila boshladi.

## 2. “Xoqon” nomiga zarb ettirilgan tangalar

G‘arbiy Turk xoqonligi o‘lkaga kirib kelishi bilan bu yerdagi mavjud voha hukmdorliklarining ayrimlariga ichki mustaqillik bergan bo‘lsa, ayrimlarida o‘z siyosiy boshqaruvini mustahkam o‘rnatdi, ba‘zilariga esa nomiga hukmdorlik ta‘siri o‘tkazgan holda siyosat yurita boshladi. Xoqonlikka tobe voha hukmdorliklari va qabilalar uyushmasi vaqti-vaqti bilan soliq, qo‘shin yoki sovg‘a-salom, elchilar yuborib o‘z ichki boshqaruvini ma‘lum darajada saqlab turadi. Bundan tashqari ushbu hukmdorliklar davlatni, davlat hukmdorini ulug‘lab, sharaflab ular nomiga tanga zarb ettirishgan. Bunday tanga turini Samarqand Sug‘di<sup>6</sup>da, O‘tror<sup>7</sup>da bunday tanga turi

<sup>6</sup> Gaybullah Babayar On the Old Turkish coins and seals with the title “kagan” and “hatun” found in samarkand // Journal of General Turkish History Research. GTTAD, Cilt 1, sayi: 2, Temmuz. 2019

<sup>7</sup> Бабаёров Г, Кубатин А. Монеты Отрара с изображением парного портрета // “Тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари» мавзuidaги Республика VI илмий-назарий конференциясининг материаллари. – Тошкент, 2014. – С. 70-75.

ilmiy tadqiqotlar orqali ma'lum . Samarqand va O'tror tangalari haqida qisqacha fikr bildirsak.



Samarqand tangalaridagi [8-9-rasm] xwβ twrnyn “Turon hukmdori” va xwβ twrnyn x'γ'n “Turon hukmdori xoqon” so'zlari o'rin olgan. Undagi unvon va tasviri qadimgi turklar bilan bog'liq bo'lib, biroq tamg'a ko'rinishi G'arbiy Turk xoqonligi va u bilan aloqador sulolalar tamg'asidan farq qiladi. Bu yerda Samarqand hukmdorlari boshqaruvchi vakillarni “Turon hukmdori xoqon” yoki turk xoqonining xubi-yordamchisi deb ulug'lash, alqash ma'nosida qo'llaganligi fikrni yanada oydinlashtiradi. Samarqand va Panjikent hukmdorlari o'z ichki boshqaruvini Turk xoqonlariga kuyov bo'lish bilan saqlab qolganliklari ma'lum<sup>8</sup>. Birgina Panjikentdagi “xotun” unvonli tanga zarb ettirilishi ya'ni Devashtich<sup>9</sup> turkiy suloladan bo'lmaganligi bunga sabab bo'lgan.



O'trorda zarb ettirilgan arslon tasvirli va o'rtasi kvadrat teshikli tanga ko'rinishlarida “alp xoqon tutuq” 'δpw x'γ'n twtwx unvoni o'rin olgan bo'lib<sup>10</sup>, ikki ko'rinishdagi tangalardagi tamg'alar bir xil ko'rinishga ega. Ilk o'rta asrlarda O'troni tutuqlar boshqarganligi, xoqon va alp so'zlari esa xoqon nomiga tanga zarb ettirilgani anglashiladi. Ushbu tangalarda xoqon unvoni alp epiteti bilan birga kelishi yanada xoqonni ulug'lash darajasini oshirishga xizmat qilgan.



Choch tangalarining birida sug'diy yozuvda x'γ'n “xoqon” unvoni uchrab, undagi tamg'a (Ψ) G'arbiy Turk xoqonligi tangalaridagi tamg'adan (Ϟ) farq qilib,

<sup>8</sup> Бобоёров Ғ.Б. Ғарбий Турк хоқонлиги тарихи ва танга-пул тизими. – Тошкент, 2021. – Б. 53-149  
<sup>9</sup> Бобоёров Ғ.Б. Ғарбий Турк хоқонлиги тарихи ва танга-пул тизими. – Тошкент, 2021. – Б. 96.  
<sup>10</sup> Бабаяров Г, Кубатин А. Монеты Отрара с изображением парного портрета // “Тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари» мавзuidaги Республика VI илмий-назарий конференциясининг материаллари. – Тошкент, 2014. – С. 70-75.

Choch tudunlari sulolasi (640-750) tangalaridagi tamg'a bilan bir xil, bu esa xoqonlikka tobe mahalliy sulolalar xoqon nomiga tanga chiqargan<sup>11</sup>.



13

Ma'lumki, Buxorxudotlarning Sosoniyshoh Varaxran V ga taqlidan zarb ettirgan kumush tangalari uzoq yillar mobaynida ham tashqi ham ichki savdoda asosiy tovar-pul vazifasini bajarib kelgan. Ushbu tanga turida turli vaqtlar davomida pahlaviy yozuv, sug'diy yozuvdagi twry'r nomli hukmdor ismini, qolaversa arab yozuvidagi matnlar o'rin olganligini ko'rib kelar edik. Yaqinda topilgan tangada esa, sug'diy yozuvda [p]rn x'y'n "qut (egasi) xoqon" "farn xoqon" "ilohiy xoqon" so'zlari o'rin olgan bo'lib, ushbu turdagi tangalar ham xoqon nomiga chiqarilgan tanga deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib G'arbiy Turk xoqonligi va u bilan bog'liq sulolalar, shuningdek, xoqonlikka tobe mahalliy xokimliklar tangalarida "xoqon" unvonining uchrashi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu bir tomondan oliy darajali unvon sifatida ikkinchi tomondan esa, tobe mulkliklarning Xoqonlikni ulug'lab, alqab, unga o'z erkinligini topshirish namunasi sifatida o'zini namoyon etadi.

**Xulosa.** G'arbiy Turk xoqonligi chog'i zarb etilgan tangalar o'z davri ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zida aks ettirib, ushbu davrda yozuv, madaniyat, diniy bag'rikenglik, davlatchilik, diplomatik aloqalar, tovar-pul munosabatlari yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi. Ushbu davr tangalarini tahlil qilish tangalarning xususiyatiga o'zgacha yangilik olib kirganligidan dalolat beradi.

### References

1. Old Turkic titles and epithets in turco-sogdian coins of coins of Central Asia Gaybulla Babayarov, Andrey Kubatin С. 65-157 Проблемы древней и средневековой истории Чача. Выпуск 6 история. Археология. Нумизматика. Lambert academic publishing 2020
2. Фарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми Ғ. Бобоёров тошкент 2018 43-105-114

---

<sup>11</sup> Бабаяров Г, Кубатин А. Монеты Отрара с изображением парного портрета // "Тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари» мавзуидаги Республика VI илмий-назарий конференциясининг материаллари. – Тошкент, 2014. – С. 70-75.

3. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982. B.126
4. Бобоёров Ғ. Фарғона - Ғарбий Турк хоқонлиги чоғида. – Тошкент: Фан, 2023. – 97-98 б .
5. Boboyorov G‘. Qadimgi turkcha unvonli To‘xoriston tangalari // O‘zbekiston: til va madaniyat / Uzbekistan: Language & Culture. – Toshkent, 2019. – Vol. 2. – B. 80.
6. Gaybullah Babayar On the Old Turkish coins and seals with the title “kagan” and “hatun” found in samarkand // Journal of General Turkish History Research. GTTAD, Cilt 1, sayi: 2, Temmuz. 2019
7. Бабаяров Г, Кубатин А. Монеты Отрара с изображением парного портрета // “Тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари» мавзуидаги Республика VI илмий-назарий конференциясининг материаллари. – Тошкент, 2014. – С. 70-75.
8. Бобоёров Ғ.Б. Ғарбий Турк хоқонлиги тарихи ва танга-пул тизими. – Тошкент, 2021. – Б. 53-149

